

EXTENDED REPORT OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY ON SDG 13

2024- yil davomida Geografiya va atrof-muhit muhofazasi kafedrasida professor o'qituvchilari tomonidan Iqlim o'zgarishi va unga moslashish mavzusi doirasida 1 monografiya, 7 dona Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatida turuvchi nufuzli jurnallarida maqola, 10 dan ortiq Xalqaro va respublika konferensiyalarida tezislari chop etilgan. Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan amaliy tadbirlar o'tkazildi. Jumladan,

2024 yil, 21-fevralda Tabiiy fanlar fakulteti tashabbusi bilan fakultet binosida "Ekologik muammolar va ularga yechimlar talabalar nigohida" mavzusida birinchi forum bo'lib o'tdi.



Ushbu ko'rgazmada talabalar hamda professor o'qituvchilar ishtirokida yaratilgan:

- Pilla qurti chiqindisini qayta ishlash hamda foydali mahsulotga aylantirish texnologiyasini joriy qilish;

- Ekotadbirkorlik bo'yicha biznes reja;
- Toza ichimlik suvini asrash;



- Geografik maydoncha tashkil etish;
- Noan'anaviy elektr energiyasini olish va takomillashtirish,
- Ekotarg'ibot harakatini joriy qilish,
- EkoMakon Radio FM faoliyatini yo'lga qo'yish;
- Orol dengizi muammosini hal etishga doir loyihalar;
- Yengil sanoatga yangi ranglarni joriy qilish;

- Qishloq xo‘jalik ekinlarini vertikal usulda yetishtirish va shunga doir 30 dan ortiq loyihalar taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

2024 yil, 23-mart kuni Jahon Meteorologiya Tashkiloti (JMT) va Jahon meteorologiya hamjamiyati Butunjahon meteorologiya kunini nishonlaydi. Ushbu kun 1950-yil JMT Konvensiyasi kuchga kirgan kundir. 1950-yil 23-mart kuni Xalqaro Meteorologiya Tashkilotiga asos solingan va bu kun Xalqaro

meteorologiya kuni deb belgilangan. Shu munosabat bilan Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va atrof muhit muhofazasi kafedrasida bugun ushbu kunga bag‘ishlangan tadbir tashkil etildi.





Unda mehmon sifatida Namangan viloyat gidrometeorologiya boshqarmasi boshlig'i M.Mutavaliyev, O'zbekiston ekologiya partiyasi Namangan shahar Kengashi raisi, deputat Sh.To'xtasinovalar o'zlarining ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi.



2024-yilning 26 aprel kuni horijiy oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamjorlikda "Iqlim o'zgarishi bo'yicha" xalqaro seminar tashkil etildi.

Unda Namanagan davlat universiteti, **O'sh davlat universiteti**, **Xo'jand davlat universiteti**, **A.I.Gersin nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti**, Farg'ona davlat universiteti, Andijon davlat universiteti, University of Business and Science (UBS), Namangan davlat pedagogika instituti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, O'zbekiston Milliy universiteti professor-o'qituvchilari ishtirok etdi.



Iqlim o'zgarishining ekologik oqibatlari mavzusida (rus tilida) **Satibaldiyev Baysal Saliyevich** – O'sh davlat universiteti dotsenti, geografiya fanlari nomzodi [Qirg'iz Respublikasi]

Farg'ona viloyatining sakral landshaftlari va ularni tibbiy geografik rayonlashtirish

Saydaliyeva Lazokatxon Mahammad qizi – Farg'ona davlat universiteti tayanch doktranti

Muqobil energiyadan foydalanish istiqbollari (rus tilida)

Vasileva Olga Yevgenevna – A.I.Gersin nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Iqtisodiy geografiya kafedrasida dotsenti, geografiya fanlari nomzodi [Rossiya]

Oqova suvlarni tozalash inshootlarini takomillashtirish, yangi texnik yechimlar va ularning sanitar-ekologik samaradorligi (rus tilida)

Sobirov Murod Sobitjonovich – akademik B.G'ofurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti Ekologiya va tabiat muhofazasi kafedrasida mudiri, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi [Tojikiston]

Jahon mamlakatlarining muqobil energetikasi: geografik tahlil va fazoviy modellashtirish (rus tilida)

Demidionov Mixail Yuryevich – A.I.Gersin nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish laboratoriyasi

ilmiy xodimi, Tabiiy geografiya va tabiiy resurslardan foydalanish kafedrası o'qituvchisi, geografiya fanlari nomzodi [Rossiya]

Semianr davomida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollari yuzasidan ma'ruzachilarga murojat qildilar. Savol-javoblar qizg'in va ilmiy munozalarga boy holda bo'lib o'tdi.





2024 yil, 3-oktyabrda o'tkazilgan aksiyada mahallani chiqindidan tozalash, ko'cha atroflarini supurish hamda ozodalikka qat'iy rioya qilish bo'yicha hashar tashkil etildi.

Talabalrni atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha universitet atrofi va o'zi yashash hududlarini tozalash, atrof-muhitni toza tutish bo'yicha ham tushuntirish ishlari olib borildi va joylarni toza tutish aytib o'tildi.



2024 yil, 18-sentyabrda "Butunjahon tozalik kuni" hamda "Ozon qatlamini yemirilishiga qarshi kurashish bo'yicha samarali choralar" yuzasidan davra suhbat tashkil etildi. Davra suhbatida mehmon sifatida O'zbekiston Ekologik harakati Markaziy Kengashi raisining birinchi o'rinbosari, falsafa fanlari doktori, professor S.Sanginov taklif qilindi.



Talablarga suhbat jarayonida;

- Ekologik madaniyat;
- Oziq-ovqat muammosi;
- Suvdan samarali foydalanish;
- Ozon tuynugi tushunchasi va u bilan bog'liq jarayonlar;
- Insoniyat oldida turgan masalalarga choralar va boshqa mavzular yuzasidan fikrlar bildirildi.

2024-yil, 22-aprelda Tabiiy fanlar fakultetida «Xalqaro yer kuni» munosabati tadbir o'tkazildi. Ma'lumki, Yer sayyorasi vujudga kelganiga qariyb to'rt yarim milliard yil bo'lgan. Uning 29 foizdan ortiqrog'i quruqlikka, qolgan qismi esa dengiz va okeanlarga to'g'ri keladi. Ishlov beriladigan maydonlar esa bor-yo'g'i 11 foizni tashkil qilishiga qaramasdan, insonlar uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining 88 foizini yetishtirib beradi.



Tadbir yakunida talabalar tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni amaliyotga joriy etish bo'yicha fakultet rahbariyatiga ko'rsatmalar berildi.

2024 yil, 30-mart kuni "Chiqindisiz dunyo uchun xalqaro kuni" nishonlandi. Jarayon davomida tabiatni asrash, qayta ishlovchi texnologiyalardan samarali foydalanish, azon tuynugi, zararli va kimyoviy chiqindilarning tabiatga ta'siri kabilar professor-o'qituvchilar hamda talabalar tomonidan fikrlar asosida tahlil qilindi.





Shuningdek, iqtidorli talabalarning ushbu mavzuga doir rasmlar ko'rgazmasi ham namoyish etildi.